XALQ DEPUTATLARI YOZYOVON TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 30 - sentabr VI-67-107-11-165-K/22 Yozyovon tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida» gi 2012- yil 16-oktabrdagi 295- sonli Qaroriga muvofiq Yozyovon tumandagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

Yozyovon tuman hokimi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha xududiy kamissiyaning 2022- yil 8- avgustdagi bo‘lib o‘tgan yig'ilishida ko‘rib chiqilgan masalaga asosan tumanda 83 ta ko‘cha nomlari Davlat ekspertizasidan qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilganligi aniqlandi va ular O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi davlat reestriga kiritilishi belgilandi.

Ushbu masalani tuman hokimligi huzuridagi komissiya qayta ko‘rib chiqishi va muhokama qilishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligidan ekspertizadan o‘tkazib berishida amaliy yordam so‘ralganligi ta’kidlab o‘tildi.

Shu munosabat bilan mazkur masala tuman hokimligi huzuridagi komissiya ishtirikida qayta ko‘rib chiqildi va muhokama qilindi, hamda ilovaga muvofiq taqdim qilingan 83 ta ko‘cha nomlari komissiya a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli Qaroriga muvofiq hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Yozyovon tuman xududiy komissiyasining 2022- yil 8 avgustdagi № 01-19/46-sonli bayonida keltirilgan takliflarni inobatga olinishi belgilab o‘tilsin.

O`zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonuni 6 va 24-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida» gi 2012- yil 16-oktabrdagi 295- sonli Qaroriga muvofiq Yozyovon tumandagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to`g`risidagi Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘limi rahbari R.Xoshimovning axboroti tinglanib va muhokama qilinib, xalq deputatlari Yozyovon tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Yozyovon tuman hokimi huzuridagi Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha xududiy kamissiyaning 2022- yil 8 avgustdagi bo‘lib o‘tgan № 01-19/46-

sonli yig‘ilish bayoni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi 83 ta ko‘chalarga nomlari berish ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi tuman filiali rahbari N.Imomatovga:

- Mazkur 83 ta ko‘cha nomlarini o‘rnatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Davlat reestriga ro‘yhatdan kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Xudoyqulov) hamda “Markaziy Farg’ona” gazetasi tahririyatiga:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida» gi 2012- yil 16-oktabrdagi 295-sonli Qaroriga muvofiq Yozyovon tumandagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to`g`risidagi Kengash qarori ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining “Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo`yicha” doimiy komissiyasi raisi (M.Inomov) tuman hokimining maslahatchisi N.Obidova zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.T.Djalilov**